

Ishmetova Feruza Maratovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Lingvistika (ingliz tili) 1-kurs magistranti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HIKMATLI SO'Z VA GAPLARNING SEMANTIK-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi hikmatli soz va gaplarni chog'ishtirish orqali ularning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish, talqinlarini mukammallashtirish to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: hikmatli so'z, hikmatli gap, aforizm, kichik matn, semantika, struktura.

Kirish. Dunyo tilshunosligida til va madaniyat munosabati, har bir tilning milliy mental omillarini anglash, uning kommunikativ vazifasini hikmatli so'zlar va gaplar ya'ni aforizmlarning pragmatik tahlilini berish, ularni til korpuslari orqali tadqiq qilish masalalariga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek va ingliz tillaridagi aforizmlarning turli tizimli tillarda namoyon bo'lishi, ularning tarjimasida lingvokulturologik jihatlarini –milliy ong, milliy tafakkur, milliy dunyoqarashni ochib berish hamda til korpuslarida voqelanishini ilmiy asoslash amaliy ehtiyoj sifatida muhim lingvistik muammo ekanligi aniq.

Adabiyotlar sharxi. Jahon tilshunosligida Antipova A.P., Boroxov E., Ojegov S.I., Jenkins J.J., Kiss G.R., Kurcz I., Boonmoh, Fedorov A. parameologik birliklar, xususan, aforizmlar bo'yicha ularning ahamiyati aforizmlarni badiiy, lingvistik, semantik jihatlarini alohida tahlil qilish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug'atlarda keltirish, aforizmlarni izohlash bo'yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo'lga kiritilgan.

Muhokama va natijalar. Aforizmga turli lug'atlarda turlicha izohlar keltrilgan bo'lib, O'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan:

AFORIZMLAR [yun. “aphorismos” – hikmatli so'z] Ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so'zlar. Masalan: “Oz demak hikmatga bois, oz yemak sihatga bois” A.Navoiy”¹⁵, “AFORISTIK Aforizm shaklidagi, aforizmga xos belgili Aforistik iboralar”¹⁶ tarzida keltirilgani holda, hikmat so'ziga berilgan izohda bu ma'no bilan bog'liqlik holati ochib berilmaganligini kuzatishimiz mumkin.

HIKMAT (a. – bilimdonlik, donishmandlik; hikmatli so'z, maqol; tibbiyot ilmi, shifokorlik).

1. Aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo'lgan, uni aks ettiruvchi narsa – gap-so'z, fikr va sh.k.; donolik belgisi. “Oz yemak – tani sog'liq, oz demak –hikmatga bog'liq”. Maqol. “Nodonning kulfati ko'p, dononing – hikmati”. Maqol.

“Bobolarning hikmati hayotga yorug' yo'ldir: “Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l”, der. E. Vohidov. “Podshoh bilan sherga yaqin bo'lmoq hikmatdan emasdir”. «Uch og'ayni botirlar» ertagi. «Kurashmoq – o'rnak bo'lib yashamoq, demakdir!», – degan edi mualliming, faylasuflarning hikmatini bayon qilib.

I. Rahim, “Chin muhabbat”. “Harakatda barakat – ko'p qadim hikmat”.

2. Tagini anglash qiyin bo'lgan, yashirin bir ma'no, yashirin bir sabab; sir. "Bu oynada qanday hikmatni ko'rding? Jonim bolam, sening holing na bo'ldi?" "Bahrom va Gulandom". "Oldingga kelgan yigit ketolmaydi, sizlarda biror hikmat bor ekan-da". "Oq olma, qizil olma". "Bektemir generallarni urushning butun hikmatini biladigan bag'oyat hurmatli aziz odamlar deb tushunardi". Oybek, "Quyosh qoraymas". "Bulbul sayraydi, xo'roz qichqiradi, eshak hangraydi, ot kishnaydi. Bularning tirikchiligi shu-da. Bunda nima hikmat bor deysiz?" P. Tursun, "O'qituvchi".

Hajmi jihatidan kichik, stilistik jihatdan siqilgan muallif gaplari "kichik janrdagi matnlar" deb ataladigan matnlar guruhini tashkil qiladi. Semantik tahlil til birligining ma'nosini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu ishda aforizmlarning semantik xususiyatlarini o'rganish ularning so'z boyligi va umumiy ma'nosini tahlil qilishni hisobga olgan holda qurilgan. Amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish va uzatish shakli bo'lgan va pragmatik mazmunga ega bo'lgan aforizm tili bir qator leksik va semantik xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Avvalo, aforizm oddiy odam uchun tushunarli bo'lishi kerak, shuning uchun aforizmlar tilida keng tarqalgan, taniqli so'zlar ustunlik qiladi. Umumiy so'zlarga qo'llanilishi cheklanmagan so'zlar kiradi. Bular kabi leksemalar:

San'at haqida

You use a glass mirror to see your face; you use works of art to see your soul. (B. Shaw); It is the spectator, and not life, that art really mirrors. (O. Wilde) ("Yuzingizni ko'rish uchun shisha oynadan foydalanasiz; ruhingizni ko'rish uchun san'at asarlaridan foydalanasiz". (B. Shou); "San'at haqiqatda hayotni emas, balki, tomoshabinni aks ettiradi". (O. Uayld)

Go'zallik haqida

Money is the most important thing in the world. It represents health, strength, honor, generosity and beauty as conspicuously as the want of it represents illness, weakness, disgrace, meanness and ugliness. (B. Shaw); Beauty is the only thing that time cannot harm. (O. Wilde)

("Pul dunyodagi eng muhim narsadir. U sog'lik, kuch, sharaf, saxovat va go'zallikni ifodalaydi, chunki unga muhtojlik kasallik, zaiflik, sharmandalik, yomonlik va xunuklikni ifodalaydi". (B. Shou); "Go'zallik - vaqt zarar yetkaza olmaydigan yagona narsa." (O. Uayld)

Ishonch haqida

The liar's punishment is not in the least that he is not believed, but that he cannot believe anyone else. (B. Shaw); The old believe everything, the middle-aged suspect everything, the young know everything. (O. Wilde)

("Yolg'onchining jazosi unga ishonmaslikda emas, balki boshqa hech kimga ishonmasligidadir". (B. Shou); "Keksa hamma narsaga ishonadi, o'rta yoshli hamma narsadan shubhalanadi, yoshlar hamma narsani biladi". (O. Uayld)

Ta'lim haqida

"Ilm-u ma'rifatli odam takabburlik qiluvchi, doimo nodon kimsalarning burnini to'zon-tuproqqa to'ldirur". (Az-Zamaxshariy)

Ilmni kim vositayi joh etar,

O‘zini-yu xalqni gumroh etar.

(Alisher Navoiy)

A fool’s brain digests philosophy into folly, science into superstition, and art into pedantry. Hence University education. (B. Shaw); Education is an admirable thing, but it is well to remember from time to time that nothing that is worth knowing can be taught. (O.Wilde)

“Ahmoqning miyasi falsafani ahmoqlikka, ilmni xurofotga, san’atni esa bekorchilikka yo‘yadi”. (B. Shou); “Ta’lim - hayratlanarli narsa, lekin vaqti-vaqti bilan yodda tutish kerakki, bilishga arziydigan hech narsani o‘rgatib bo‘lmaydi”. (O. Uayld)

Xulosa. Sinonimik qator a’zolarining har biri qatorning barcha birliklari uchun umumiy ma’noni aniqlaydi, to‘ldiradi, kengaytiradi. Sinonimiya bilan bir qatorda leksik birliklarning semantik munosabatlarining yana bir turi antonimiyadir.

Qarama-qarshi ma’noli so‘zlar barqaror semantik aloqalarni rivojlantiradi, leksik birliklarning juft va mikrosistemalarini hosil qiladi. Aforizmlar tilida antonimik munosabatlar eng aniq ko‘rsatilgan, chunki ko‘p aforizmlar qarama-qarshilik xarakteridadir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. L.Raupova. Dialogik diskursdagi nopredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. –Toshkent, 202. – 220 b.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - Toshkent: Fan, 2007.
3. Komilova G. Antonim komponentli paremiyalarning lingvokulturologik tadqiqi. // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Maqolalar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 174-178.
4. Abjalova M. O‘zbek tili paronimlarining lug‘ati. [Matn]: o‘quv-uslubiy lug‘at / M.Abjalova. – Termiz, 2022. – 64 b. ISBN 978-9943-7870-6-3.